

30-Oktyabr, 2025-yil

JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQIDA MOL-MULKNI XATLASH TARTIBI

Odilov Nozimjon Jumanazar o‘g‘li

odilovnozimjon216@gmail.com

Mehnat va Ijtimoiy Munosabatlar Akademiyasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyat protsessual qonunchiligida mol-mulkni xatlash institutining huquqiy mohiyati, uni qo‘llash tartibi hamda protsessual kafolatlar yoritiladi. Unda mol-mulkni xatlash protsesual harakatining qo‘llanishi shaxsning mulk huquqiga ta’sir qiluvchi muhim protsessual mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliyotda uchrayotgan muammolar, xususan, xatlash chorasini qo‘llashda proportsionallik tamoyiliga rioya etilmasligi, sud nazoratining yetarli darajada ta’minlanmagani kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Maqolada xorijiy davlatlar tajribasi, jinoyat-protsessual tizimidagi mol-mulkni xatlash tartiblari bilan solishtirma tahlil o‘tkazilgan hamda O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Jinoyat-protsessual qonuchilik, mol-mulkni xatlash, protsessual majburlov choralari, sud nazorati, proportsionallik tamoyili, jinoiy daromadlar, jabrlanuvchining huquqlari, xalqaro tajriba.

**PROCEDURE FOR SEIZING PROPERTY IN CRIMINAL
PROCEDURE LAW**

Odilov Nozimjon Jumanazar o‘g‘li

| odilovnozimjon216@gmail.com

Lecturer of the Academy of Labor and Social Relations

Abstract. This article highlights the legal essence of the institution of property seizure in criminal procedural legislation, the procedure for its application, and procedural guarantees. In it, the application of the procedural action of seizure of property is analyzed as an important procedural mechanism affecting the property rights of a person. Problems encountered in practice, in particular, the non-compliance with the principle of proportionality in the application of a seizure measure, and insufficient judicial control, will also be considered. The article provides a comparative analysis of the experience of foreign countries, the procedure for seizing property in the criminal procedure system, as well as proposals for improving the legislation of Uzbekistan.

Keywords: Criminal procedure legislation, property seizure, procedural coercive measures, judicial control, principle of proportionality, criminal proceeds, victims' rights, international experience.

**ПОРЯДОК АРЕСТОВАНИЯ ИМУЩЕСТВА В УГОЛОВНО-
ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ПРАВЕ**

Одилов Нозимжон Жуманазар угли

Преподаватель Академии труда и социальных отношений

Аннотация: В данной статье рассматривается правовая сущность института ареста имущества в уголовно-процессуальном законодательстве, порядок его применения и процессуальные гарантии. В ней применение процессуального действия ареста имущества анализируется как важный процессуальный механизм, влияющий на право собственности лица. Также будут рассмотрены проблемы, встречающиеся на практике, в частности, такие вопросы, как несоблюдение принципа пропорциональности при применении ареста, недостаточное обеспечение судебного контроля. В статье проведен сравнительный анализ с опытом зарубежных стран, процедурами ареста имущества в уголовно-процессуальной системе, а также высказаны предложения по совершенствованию законодательства Узбекистана.

Ключевые слова: Уголовно-процессуальное законодательство, арест имущества, меры процессуального принуждения, судебный контроль, принцип пропорциональности, преступные доходы, права потерпевшего, международный опыт.

Hozirgi davrda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplash hamda jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni aniqlash va musodara qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayonda jinoyat protsessida qo‘llaniladigan majburlov choralari ichida mol-mulkni xatlash institutining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Chunki mol-mulkni xatlash jinoyat natijasida olingan noqonuniy boylklarning yashirilishining oldini oladi, kelgusida sud hukmini ijro etish va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni undirish imkonini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (keyingi o‘rinlarda JPK) 290-295 moddalarida mol-mulkni xatlash tartibi, uni qo‘llash asoslari, sud tomonidan ruxsat berish shartlari hamda bu choraning bekor qilinishi tartibi belgilangan. Shu bilan birga, amaliyotda mazkur institutni qo‘llashda ayrim muammolar, xususan, xatlash chorasining qo‘llanishida proportsionallik tamoyiliga rioya qilinmasligi, mulk egalarining huquqlari to‘liq kafolatlanmagan holatlar uchrab turadi.

Shuningdek, jinoyat yo‘li bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashda xalqaro tajriba, xususan, Yevropa davlatlari va AQShda shakllangan “asset freezing” va “asset forfeiture” tizimlari, bu boradagi protsessual kafolatlar o‘rganilishi kerak hisoblanadi.

30-Oktyabr, 2025-yil

Shu bois, ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida mol-mulkni xatlash tartibi, uning qo‘llanish mexanizmlari, amaldagi normalarning amaliy ahamiyati va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — mazkur protsessual institutni chuqurroq o‘rganish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 290-moddasida mol-mulkni xatlashning huquqiy asoslari va tartibi batafsil belgilab berilgan. Ushbu norma mazmunidan kelib chiqib, mol-mulkni xatlash — bu hukmning fuqaroviy da’voga yoki boshqa mulkiy undirishlarga doir qismini ijro etish, shuningdek, jinoyat natijasida olingan daromadlarni yashirish, o‘zlashtirish yoki yo‘qotishning oldini olish maqsadida shaxsning mol-mulkiga nisbatan tasarruf qilish va foydalanishni vaqtincha cheklovchi protsessual chora ekanligi anglashiladi.

JPKning 290-moddasiga muvofiq, mol-mulkni xatlash gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi hamda fuqaroviy javobgarining mol-mulkiga nisbatan fuqaroviy da’voni ta’minlash yoki mulkiy undirishlarni ijro etish zarur bo‘lgan hollarda qo‘llanadi. Bunda xatlash faqatgina mulkni saqlab qolish yoki uning noqonuniy sarflanishining oldini olishga qaratilgan ta’minlovchi chora sifatida qo‘llanadi.

Shuningdek, mol-mulkni xatlash ashyoviy dalil sifatida e’tirof etilgan predmetlarga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. Bunday hollarda ularni o‘zlashtirish, yashirish yoki shikastlashning oldini olish maqsadida xatlash amalga oshiriladi. Shu bilan birga, qonunchilik insonparvarlik tamoyillariga muvofiq tarzda ayrim istisnolarni ham nazarda tutgan: gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi oilasining normal turmushini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan uy-joy, kiyim-kechak, uy anjomlari va boshqa zarur buyumlar xatlanmaydi.

JPKning 290-moddasi mol-mulkni xatlashning tartibdagi bosqichlarini ham belgilaydi. Tergovchi yoki surishtiruvchi bu chora qo‘llanishi zarur deb topgan taqdirda, iltimosnoma qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqaradi va unga asoslovchi materiallarni ilova qiladi. Ushbu materiallar avval prokurorga yuboriladi, prokuror esa ularni asoslilik nuqtayi nazaridan tekshirib, rozilik bildirgan taqdirda sudga taqdim etadi.

Shunday qilib, mol-mulkni xatlash – bu sud nazorati ostida amalga oshiriladigan protsessual majburlov chorasidir. Biroq, JPK 290-moddasi kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda istisno tariqasida sud ruxsatisiz xatlash imkonini ham beradi. Bunday hollarda tergovchi yoki surishtiruvchi mustaqil qaror qabul qiladi, ammo keyinchalik sud va prokuror bu haqda 24 soat ichida xabardor qilinadi va sudya 48 soat ichida xatlashning qonuniyligini tekshiradi.

Bu tartib, bir tomondan, tergov jarayonining samaradorligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, shaxsning mulk huquqini himoya qilishga xizmat qiladi. Chunki sudya mol-mulkni xatlashning qonuniyligi yoki qonunga xilofligi haqida ajrim chiqaradi, agar xatlash noqonuniy deb topilsa, bunday yo‘l bilan olingan barcha dalillar JPKning 95¹-moddasiga ko‘ra nomaqbul dalil sifatida baholanadi.

Demak, mol-mulkni xatlashning maqsadi nafaqat jinoyat yo‘li bilan olingan daromadni saqlab qolish, balki sud adolatini amalga oshirishni kafolatlash va fuqaroviy

da’vogar manfaatlarini himoya qilishdir. Shu jihatdan, mazkur protsessual institut jinoyat protsessining eng muhim majburlov choralaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda mol-mulkni xatlash — shaxsning konstitutsiyaviy mulk huquqiga jiddiy aralashuvchi protsessual chora hisoblanadi. Shu bois uni qo’llash tartibi qat’iy qonuniy asoslarda va sud nazorati ostida amalga oshirilishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 290¹-moddasi va 290²-moddasi ushbu tartibning asosiy bosqichlarini aniq belgilab beradi.

JPKning 290¹-moddasiga muvofiq, mol-mulkni xatlash to’g’risidagi iltimosnoma surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo’yicha tuman (shahar) sudining tergov sudyasi tomonidan, mazkur sudning sudyasi bo’lmagan yoki mol-mulkni xatlash to’g’risidagi iltimosnomani ko’rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo’lgan taqdirda esa Qoraqalpog’iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi raisining ko’rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning tergov sudyasi tomonidan yakka tartibda ko’rib chiqiladi.

JPKning 290¹-moddasiga binoan, sudya mol-mulkni xatlash to’g’risidagi iltimosnomani 8 soat ichida ko’rib chiqishi shart. Bu jarayonda:

- Sud majlisida prokuror, zarur hollarda tergovchi, surishtiruvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, shuningdek, agar ishda ishtirok etayotgan bo’lsa, himoyachi va (yoki) qonuniy vakil ishtirok etadi.

- Sud majlisining o’tkazilish joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning sud majlisiga kelmaganligi mol-mulkni xatlash to’g’risidagi iltimosnomani ko’rib chiqish uchun monelik qilmaydi.

- sud majlisi odatda yopiq tarzda o’tkaziladi, chunki bunda moliyaviy va shaxsiy ma’lumotlar mavjud bo’ladi.

Sudya iltimosnomani ko’rib chiqqach, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1. Mol-mulkni xatlash to’g’risidagi ajrim chiqaradi;
2. Mol-mulkni xatlashni rad etish haqida ajrim chiqaradi;

Sudning ajrimi ustidan protsess ishtirokchilari (ayblanuvchi, himoyachi, qonuniy vakil) apellyatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega. Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilishi sudning mol-mulkni xatlash to’g’risidagi ajrimi ijrosini to’xtatib turmaydi.

Apellyatsiya instansiyasi sudining sudyasi apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko’rib chiqib, o’z ajrimi bilan:

- sudyaning ajrimini o’zgarishsiz, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmay qoldirishga;

- sudyaning ajrimini bekor qilishga va mol-mulkni xatlashga rozilik berishga yoki mol-mulkni xatlashni rad etishga haqli.

Sud tomonidan mol-mulkni xatlash haqida ajrim chiqarilgach, ushbu qaror o’qib eshittirilgan paytdan e’tiboran kuchga kiradi.

Shunday qilib, JPK 290¹–290²-moddalarida mol-mulkni xatlash to’g’risidagi iltimosnomani ko’rib chiqishning huquqiy tartibi shunday ishlab chiqilganki, u bir vaqtning

o‘zida tergov manfaatlarini himoya qiladi va shaxsning mulk huquqini kafolatlaydi. Mazkur tartib jinoyat protsessida qonuniylik, asoslanganlik hamda sud nazoratini ta‘minlovchi muhim protsessual mexanizm hisoblanadi.

Mol-mulkni xatlash jinoyat-protsessual majburlov choralari ichida shaxsning mulk huquqiga eng katta ta‘sir ko‘rsatuvchi protsesual choralardan hisoblanadi. Shu bois, uni qo‘llashda qonuniylik tamoyillariga qat‘iy rioya etish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 291–293-moddalari aynan ushbu tamoyillarning amaliy ifodasini belgilab beradi.

JPKning 291-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi yoki tergovchi mol-mulkni xatlash to‘g‘risida ikki nafardan kam bo‘lmagan xolislar ishtirokida bayonnoma tuzadi. Bayonnomada xatlangan barcha mol-mulkning nomi, o‘lchovi, og‘irligi, eskirish darajasi va boshqa o‘ziga xos belgilari sanab o‘tilib, mol-mulkni xatlayotgan shaxsning harakatlari to‘g‘risidagi va bayonnomaga kiritilgan mol-mulkning uchinchi shaxslarga tegishliligi haqidagi arzlar bayon etiladi. Mol-mulk olib qo‘yilgan taqdirda aynan nimaning olinganligi va qayerga yoki kimga saqlash uchun topshirilganligi bayonnomada ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, JPK 291-moddasining 2-qismiga ko‘ra mol-mulkni xatlash chog‘ida uni yashirish, yo‘q qilib yuborish yoki shikastlashga urinishlar qilingan bo‘lsa, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan qo‘llangan choralar ko‘rsatilib, bayonnomada aks ettirilishi lozim.

JPKning 292-moddasiga ko‘ra, mol-mulk xatlanganligi to‘g‘risidagi bayonnomaning nusxasi mol-mulki ro‘yxatga olingan shaxsga yoki uning voyaga yetgan oila a‘zolaridan biriga, ular bo‘lmagan taqdirda, mol-mulk ro‘yxatga olingan hududdagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi vakiliga topshirilib tilxat olinadi.

Agar korxona, muassasa, tashkilot yoki diplomatiya vakolatxonasi hududidagi mol-mulkni ro‘yxatga olish o‘tkazilgan bo‘lsa, mol-mulk xatlanganligi to‘g‘risidagi bayonnomaning nusxasi tegishli ma‘muriyat yoki diplomatiya vakolatxonasi vakiliga topshirilib, qo‘l qo‘ydirib olinishi kerak bo‘ladi.

JPKning 293-moddasi xatlash chog‘ida mol-mulkni baholash tartibini belgilaydi. Ushbu modda mazmuniga ko‘ra, xatlanayotgan mol-mulk surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan uning eskirish darajasini e‘tiborga olib, baholash paytida mavjud bo‘lgan bozor narxida baholanadi. Zarur hollarda baholash mutaxassis ishtirokida yoki baholovchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Pullar, obligatsiyalar, cheklar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar o‘z qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. Hukmning fuqaroviy da‘vo qismi ijrosini ta‘minlash uchun mol-mulkni xatlashda bayonnomaga qiymati ziyonni qoplash uchun yetarli mol-mulk kiritiladi. Bunda mulkdor yoki mol-mulk egasi, o‘zining fikricha, qaysi mol-mulkni bayonnomaga kiritish zarur deb hisoblasa, shu mol-mulkni ko‘rsatishga haqlidir. xatlashga sabab bo‘lgan asoslar yo‘qolgan taqdirda, sud, tergovchi yoki prokuror qarori bilan xatlov bekor qilinishi mumkin.

JPKning 295-moddasi mol-mulkni xatlash chorasini bekor qilish tartibini belgilaydi. Ushbu modda mazmuniga ko‘ra, xatlashga sabab bo‘lgan asoslar yo‘qolgan taqdirda, sud, tergovchi yoki prokuror qarori bilan xatlov bekor qilinishi mumkin. Masalan, gumon

qilinuvchi yoki ayblanuvchining aybsizligi aniqlansa, jabrlanuvchiga zarar qoplangan bo‘lsa yoki xatlangan mol-mulk jinoyatga aloqador emasligi isbotlansa, xatlashni davom ettirishning huquqiy asosi yo‘qoladi.

Shunday qilib, JPK 290–295-moddalari mol-mulkni xatlash institutining asosini tashkil etadi. Ularning amaliy ta‘minlanishi shaxsning mulk huquqini himoya qilish, jinoyat oqibatlarini bartaraf etish hamda adolatli sudlovni amalga oshirish uchun zarur kafolatdir¹.

Mol-mulkni xatlash — bu nafaqat O‘zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligiga, balki aksariyat xorijiy davlatlar huquq tizimlariga ham xos institutdir. Har bir davlatda bu chora shaxsning mulk huquqiga aralashishning keskin shakli sifatida baholanadi, shu bois uni qo‘llashda sud nazorati, asosli ehtimol va proportsionallik tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega. Quyida ayrim xorijiy tajribalar tahlil qilinadi:

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasida mol-mulkni xatlash protsessual majburlor chorasi sifatida belgilangan. Ushbu modda mazmuniga ko‘ra, mol-mulkni xatlash quyidagi hollarda qo‘llanadi:

1. Fuqaroviy da‘voni ta‘minlash uchun;
2. Jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni saqlab qolish maqsadida;
3. Musodara qilinishi mumkin bo‘lgan ashyoviy dalillarni saqlab turish uchun.

Rossiya qonunchiligida mol-mulkni xatlash faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi. Tergovchi yoki surishtiruvchi bu haqda iltimosnoma kiritadi, prokuror esa uni sudga taqdim etadi. Sud bu masalani yopiq sud majlisida ko‘rib chiqib, xatlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida qayd etilishicha², xatlash faqat jinoyat bilan bevosita bog‘liq mol-mulkka nisbatan qo‘llanilishi kerak. Aks holda, bu chora noqonuniy hisoblanadi va shaxsga yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanadi.

AQSh huquq tizimida esa³ mol-mulkni xatlash choralari federal sudlar tomonidan maxsus tartibda qo‘llanadi. Ushbu institut “Federal Rules of Criminal Procedure”, xususan, Rule 41 qoidolari bilan tartibga solinadi.

AQShda mol-mulkni xatlash ikki shaklda qo‘llaniladi:

1. Criminal forfeiture (jinoyat protsessi doirasida musodara qilish) – sud hukmi bilan jinoyat natijasida olingan daromad yoki u bilan bog‘liq aktivlar musodara qilinadi;
2. Civil forfeiture (fuqarolik tartibidagi musodara) – bu holda jinoyat ishi yuritilmasa ham, hukumat noqonuniy daromad sifatida gumon qilingan mol-mulkni sud orqali muzlatib qo‘yishi mumkin.

¹ Bozorboyev, F., & Boboxonov, A. (2025). DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(4), 368–374.

² Bazhenova, A., Desyatnik, A., Mudretska, H., & Rakipova, I. (2021). Ensuring the detection of property in the institute of property seizure. *Amazonia Investiga*, 10(42), 236–247.

³ Elov, S. (2024). CHARACTERISTICS OF THE INVESTIGATION OF CRIME LAUNDERING PROCEEDS OF CRIMINAL ACTIVITIES. *Modern Science and Research*, 3(5), 1319–1334.

AQShda mol-mulkni xatlash faqat sud sanksiyasi bilan amalga oshiriladi. Prokuror yoki federal tergov organi (masalan, FBI yoki DEA) mol-mulk jinoyat bilan aloqador ekanini “reasonable cause” (asosli ehtimol) bilan isbotlashi kerak. Shundan so‘ng, sud order beradi va mol-mulk muzlatiladi.

AQSh tajribasining o‘ziga xos jihati shundaki, xatlangan mol-mulk egalari sudda “innocent owner defense” (aybsiz mulkdor himoyasi) asosida o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega. Agar ular mol-mulk jinoyat bilan bog‘liq emasligini isbotlay olsa, sud xatlovni bekor qiladi.

Yevropa davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya va Italiya esa jinoyat-protsessual tizimida mol-mulkni xatlash chorasiga aktivlarni muzlatish (asset freezing) deb qaraladi.

Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksiga⁴ (Strafprozessordnung, StPO) ko‘ra, mol-mulkni xatlash faqat sud orderi bilan amalga oshiriladi. Tergov organi bunday chora qo‘llash zaruratini asoslab bergach, sud qaror chiqaradi. Shu bilan birga, Germaniya qonunchiligi xatlashni muddatli chora sifatida belgilaydi — agar u belgilangan muddatda sud hukmiga asoslanmasa, avtomatik ravishda bekor qilinadi.

Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksida esa mol-mulkni xatlash prokuror nazorati ostida amalga oshiriladi, ammo barcha holatlarda sud tomonidan tasdiqlanishi shart. Shuningdek, Fransiyada xatlangan mol-mulkni baholash va saqlash uchun maxsus AGRASC agentligi (Agence de gestion et de recouvrement des avoirs saisis et confisqués ya’ni xatlangan va musodara qilingan aktivlarni boshqarish va tiklash agentligi) faoliyat yuritadi.

Italiya esa jinoyat yo‘li bilan olingan mol-mulkni xatlashni kengaytirilgan asoslarda qo‘llaydi⁵. Ya’ni, shaxsning jinoyat ishi bo‘lmasa ham, agar uning daromadi rasmiy manbalardan ancha yuqori bo‘lsa, sud bu mol-mulkni “noqonuniy boylik” sifatida muzlatib qo‘yishi mumkin. Bu chora korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali vosita sifatida e’tirof etilgan.

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki:

- Har bir mamlakatda mol-mulkni xatlash sud nazorati ostida amalga oshiriladi;
- Proportsionallik, asosli ehtimol va muddatlilik tamoyillari umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi;
- Ayrim mamlakatlarda (AQSh, Italiya) jinoyat ishi ochilmagan holatlarda ham mol-mulkni muzlatish imkoniyati mavjud, bu esa mol-mulkni jinoyat daromadi sifatida yashirishning oldini oladi;
- Maxsus baholash va saqlash agentliklari (masalan, Fransiyadagi AGRASC) xatlangan mol-mulkdan samarali foydalanish va uni qonuniy egasiga qaytarish mexanizmini takomillashtiradi.

⁴ J Lelieur. FREEZING AND CONFISCATING CRIMINAL ASSETS IN THE EUROPEAN UNION - Eur. Crim. L. Rev., 2015

⁵ J Lelieur. FREEZING AND CONFISCATING CRIMINAL ASSETS IN THE EUROPEAN UNION - Eur. Crim. L. Rev., 2015

Mazkur tajribalar O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi uchun ham muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mol-mulkni xatlash institutini yanada shaffof, muvozanatli va insonparvar qilish yo‘lida foydali yo‘nalishlarni ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jinoyat protsessual qonunchiligida mol-mulkni xatlash chorasining to‘g‘ri va qonuniy qo‘llanishi jinoyat ishi yuritishning muhim kafolatlaridan biridir. Bu chora bir tomondan jabrlanuvchining moddiy manfaatlarini himoya qilishga, ikkinchi tomondan esa jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni yashirish va qonuniy aylanishga kiritishning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 290–295-moddalarida mol-mulkni xatlash tartibi belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim huquqiy bo‘shliqlar mavjud. Xususan, xatlash uchun asoslarni aniqlashda “jinoyatga aloqadorlik” mezonini yetarlicha aniq belgilanmagan, sud nazorati mexanizmi esa ba‘zan shakliy tusda qolmoqda.

Shuningdek, ayrim holatlarda xatlash chorasining haddan tashqari keng qo‘llanilishi shaxsning konstitutsiyaviy mulk huquqini buzish xavfini tug‘diradi. Shu bois bu institutni inson huquqlarini ta‘minlovchi mexanizmlar bilan muvozanatlashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu sababli quyidagi takliflar yuzaga kelmoqda:

1. Sud nazoratini kuchaytirish: Mol-mulkni xatlash faqat sud qarori asosida qo‘llanilishi, sud esa har bir holatda xatlashning zarurligi va proportsionalligini asoslab berishi kerak.

2. Muddatlilik tamoyilini joriy etish: Xatlov chorasining amal qilish muddati belgilanishi va ushbu muddat tugagach, sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Bu chora inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi.

3. Xatlangan mol-mulkni boshqarish tizimini yaratish: Fransiya tajribasidagi AGRASC singari maxsus agentlik tashkil etilib, xatlangan mol-mulkni saqlash, baholash va qonuniy egasiga qaytarish tartibini samarali yo‘lga qo‘yish mumkin.

4. Proportsionallik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash: Xatlov qo‘llanilganda shaxs va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi lozim. Har qanday holatda bu chora “jazolash vositasi” emas, balki tergov jarayonining ta‘minlovchi mexanizmi sifatida qo‘llanishi kerak.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish mol-mulkni xatlash institutini yanada shaffof, qonuniy va insonparvar tizimga aylantirishga xizmat qiladi. Natijada jinoyat protsessida davlat manfaatlari, jabrlanuvchining huquqlari hamda gumon qilinuvchining konstitutsiyaviy kafolatlari o‘rtasida muvozanat ta‘minlanadi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Agoyev, S., & Abduqunduzov, O. (2025). JINOYAT PROTSESSIDA EHTIYOT CHORALARINING QO’LLANILISHI VA ULARNING SUDLOV TIZIMIDAGI O’RNI. Наука и инновация, 3(24), 92–96. <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/113408>
2. Bozorboyev, F., & Boboxonov, A. (2025). DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAkatLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(4), 368–374. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N57>
3. Elov, S. (2024). CHARACTERISTICS OF THE INVESTIGATION OF CRIME LAUNDERING PROCEEDS OF CRIMINAL ACTIVITIES. Modern Science and Research, 3(5), 1319–1334. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/33459>
4. Bazhenova, A., Desyatnik, A., Mudretskaya, H., & Rakipova, I. (2021). Ensuring the detection of property in the institute of property seizure. Amazonia Investiga, 10(42), 236–247. <https://doi.org/10.34069/AI/2021.42.06.22>
5. J Lelieur. FREEZING AND CONFISCATING CRIMINAL ASSETS IN THE EUROPEAN UNION - Eur. Crim. L. Rev., 2015 – HeinOnline
6. Beshimov, G. (2025). JINOYAT ISHLARI BO’YICHA SUD QARORLARINING MULKIY UNDIRUVIGA OID IJRO VARAQALARNI IJRO QILISHDA XORIJIY TAJRIBA. Modern Science and Research, 4(2), 740–749. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68432>